

GLABALLASHUVNING ASOSIY JIHATLARI VA ULARNING RIVOJLANISH STRATEGIYASIDA TA'SIRI.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
Universiteti 4-kurs talabarlari
Nusratilloeva Ruxshona
Nurillayeva Marjona
Ametov Sarvar
Xudoyorov Shaxzod

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv jarayoning ahamiyatlari shuningdek uning rivojlanish strategiyasiga tasirini o'rganish bilan birgalikda rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, uning rivog'lanish strategiyasining yo'nalishlariga bo'lgan ijobiy va salbiy ta'sirlarini o'rganish va pragnozlash yuzasidan fikr mulohazalar yuritilgan. Shu bilan birgalikda globallashuv jarayonida xalqimizning rivojlanish strategiyasi bilan birgalikda buyuk manaviy axloqiy qadriyatlarini ham shakillantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, rivojlanish strategiyasi, ommaviy madaniyat ma'naviy qiyofa.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение процесса глобализации и его влияние на стратегию развития, а также анализируются этапы развития, изучаются и прогнозируются его положительные и отрицательные последствия для направлений стратегии развития. Одновременно с этим, статья направлена на формирование высоких духовных и нравственных ценностей нашего народа в рамках стратегии развития в процессе глобализации.

Ключевые слова: Глобализация, стратегия развития, массовая культура, духовный образ.

Abstract: This article discusses the significance of the globalization process and its impact on the development strategy, as well as the developmental stages of

development, study and predict its positive and negative consequences for the directions of the development strategy. At the same time, the article is aimed at the formation of high spiritual and moral values of our people within the framework of the development strategy in the process of globalization.

Key words: globalization, development strategy, mass culture, spiritual image.

Kirish

Hammanizga ma'lumki, XIX asrning oxiri XXI asrning boshlaridagi xalqaro vaziyat globallashuv jarayonlarining nihoyatda chuqurlashib ketganligi bilan xarakterlanadi. Masalaning muhim va dolzarb jihati shundan iboratki, hozirgi zamon globallashuv jarayonlari insoniyat uchun keltirib chiqarayotgan oqibatlar mohiyatini tezda tushunib anglash oson kechmayapti. Globallashuv va taraqqiyotning yangi bosqichida milliy ma'naviyatni rivojlantirish, uzoq kelajak istiqbollarini ko'zlab ish tutish sog'lom ma'naviy muhitni asrab-avvaylashning muhim garovidir. Shunday muhim davrda yashayotgan ekanmiz O'zbekistonimizning kelajagi haqida qayg'urmasligimizning iloji yo'q deb hisoblayman.

Yangi O'zbekistonni barpo etish bu shunchaki hohish istak yoki subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy ildizlarga ega bo'lgan mamlakatimizdagi mavjud siyosiy - huquqiy, ijtimoiy - iqtisodiy, ma'naviy - ma'rifiy vaziyatning o'zi taqazo etayotgan xalqimizning asriy orzu intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruriyatdir.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Yer shari har jihatdan o'zlashtirilgan, har kuni har burchagida nima bo'layotgani barchamizga ma'lum go'shaga aylandi. Yer kurrasining noma'lum, inson bilmagan, u oyoq bosmagan joylari qolmadi. Fan va texnikaning yangidan-yangi yutuqlari bu borada insonning imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Globallashuv atamasi dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir bo'lgan o'zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T. Levittning 1983 yilda "Garvard biznes revyu" jurnalida e'lon qilgan

maqolasida qo'llanilgan edi. Unda aytilishicha, Globallashuv – transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli – tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayoni”dir. Uni o'rganish jarayoni esa Roland Robertson tomonidan 1985 yili uning jahonni yagona bir butun qilish maqsadiga qaratilgan ob'ektiv jarayonlarning majmuasi sifatida aniqlangan davridan boshlangan. Bu tushunchaga ana shu paytdan boshlab to hozirgacha turlicha qarashlar davom etib kelmoqda. Aksariyat ko'pchilik ilmiy tadqiqotlarda globallashuvni lotin tilidagi “globus” shar, fransuz tilidagi “global” umumbashariy so'zlari bilan ta'riflaydilar. Respublikamiz olimlari hamkorligida nashr etilgan “Falsafa qomusiy lug'ati”da “Global (umumbashariy) muammolari” tushunchasi berilgan. Unda bu tushuncha (Fransuzcha global eng umumiy) o'z ko'lami, qamrovi jihatidan xilma-xil va butun yer shariga, insoniyatga dahldor bo'lgan muammo ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek mazkur lug'atda global muammolar keng ma'noda inson va tabiat o'rtasida o'zaro aloqalarning buzilganligini anglatadi, deb ko'rsatiladi hamda bugun jahonda yuzaga kelgan global muammolarning bir nechitasi misol tariqasida keltiriladi.

Globallashuvnig ijobiy tomoni shundan iboratki, u xalqlarning, davlatlarning, milliy madaniyat va iqtisodiyotlarning yaqinlashishini tezlashtiradi, ularning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Uning salbiy tomoni shundan iboratki, ko'p ming mayda, qoloq etnik guruhlar va millatlarning madaniyati, tili, rasm-rusmlari jahon bo'ylab kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlarida katta millatlar, yirik milliy madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmay, o'z-o'zidan faol. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Yer shari hammamizga ma'lum, har jihatdan o'zlashtirilgan, har kuni har burchagida nima bo'layotgani barchamizga ma'lum go'shaga aylandi. Yer kurrasining noma'lum, inson bilmagan, u oyoq bosmagan joylari qolmadi. Fan va texnikaning yangidan-yangi yutuqlari bu borada insonning imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

Globallashuvnig ijobiy tomoni shundan iboratki, u xalqlarning, davlatlarning, milliy madaniyat va iqtisodiyotlarning yaqinlashishini tezlashtiradi, ularning

rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Uning salbiy tomoni shundan iboratki, ko'p ming mayda, qoloq etnik guruhlar va millatlarning madaniyati, tili, rasm-rusmlari jahon bo'ylab kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlarida katta millatlar, yirik milliy madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmay, o'z-o'zidan faol ijtimoiy-iqtisodiy, lisoniy-zaboniy hayotdan chetga chiqib qolmoqdaijtimoiy-iqtisodiy, lisoniy-zaboniy hayotdan chetga chiqib qolmoqda.O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichi bu boradagi yondashuvlarni tubdan o'zgartirishni talab qilmoqda. Halqimiz xayotining barcha sohalari qatori fuqarolarimizning ongi va dunyoqarashida jiddiy o'zgarishlar bo'lishini taqazo etmoqda.

XULOSA

Globallashuv - tadrijiy jarayon bulib, uning intensivligi dunyoning barcha nuqtalarida turli hil va turli darajada kuzatilmoqda. Mazkur jarayonning keng tus olganligi rivojlanayotgan mamlakatlarga katta taxdid solmoqda. Turli mamlakatlarda ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlik oqibatida mojarolar yuzaga kelmoqda. Bunday vaziyatdan esa xalqaro terrorizm ustalik bilan foydalanadi. Keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, XXI asrga kelib mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi «Integratsiyalashuv» va «Internatsionallashuv»da amal qiladigan tabiiylik tenglik va o'zaro manfaatdorlik o'rnini taraqqiy qilgan mamlakatlar manfaatlarining hukmronligini ta'minlashga xizmat qilayottan «Globallashuv» jarayoni egallamoqda. Shu ma'noda ham bu tushuncha ilmiy iste'molda ommaviylashib ketayotganligining guvohi bo'lib turibmiz.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Falsafa: qomusiy lug'at.- T.: «Sharq», 2004, 92 b